

TABIAT VA BIZ. OROL DENGIZINING MUAMMOLARI.**Kamolaxon Haydarova***Qo'qon Universiteti o'qituvchisi***Abdug'afforova Zarinabonu***Qo'qon universiteti 1-kurs talabasi***Annotatsiya**

Ushbu maqolada O'zbekiston hududida global muammolardan biriga aylangan Orol dengizi haqida ma'lumot berilgan. Uning qurish sabablari o'rganib chiqilgan. Orol dengizining yaxshilanishi va aholining turmush tarzini farovon qilish maqsadida bir nechta tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar

O'zbekiston, Amudaryo, Sirdaryo, Markaziy Osiyo, Orol dengizi, suv, dehqondorchilik, chorvachilik.

Tabiat yer yuzidagi jamiki tirik mavjudotlar uchun muqaddas makondir. Axir, tabiat ularni to'ydiradi, issiq va sovuqdan asrash uchun yordam beradi. Shuning uchun tirik mavjudotlar tabiatga g'amxorlik qiladi. Tabiatga mehr bu uni asrashdir. Bugungi kunda tabiat insonning yordami va g'amxo'rligiga muhtoj ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Buning boisi – tabiatda g'ayriinsoniy munosabatdir. Uzoq yillar davomida ishlab chiqarish munosabatlarining noto'g'ri tashkil etilgani tufayli ko'plab ekologik muommolar vujudga keldi.

Hammamiz yaxshi bilamizki, ona yurtimiz dunyoda tengsiz go'zal makonlardan biridir. Biz uni asrab-avaylash, kelajak avlodga bus-butun yetkazish hammamizni unitilmas burchimiz. Ma'lumki, tabiatda hamma narsa bir- biriga uyg'undir.

Insonning tabiatga ijobiy va salbiy ta'siri. Odam barcha tirik organizimlar singari tashqi muhitdan kislorod va ozuqani qabul qiladi. Odamlar dastlab o'simlik mevasiva urug'lari, ildizmevalari bilan oziqlangan, xom go'sht iste'mol qilgan. Keyinchalik baliq ovlashyovvoyi hayvonlarni tutishni osonlashtirish uchun turli qurollar yasay boshlagan. Qadimgi odamlar iqlimning sovib borishi natijasida isinish va ovqat tayyorlash uchun olovdan foydalanishgan. Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi odamning doimiy yashsh joyiga ega bo'lishga sabab bo'lgan.


Inson tabiatdan oladigan barcha moddiy boyliklar – yer osti boyliklari, suv, havo, tuproq, o'simliklar, hayvonot olamida boshqalar tabiiy boylik hisoblanadi. Inson tabiatning bir bo'lagi bo'lgan holda u bilan bo'lgan munosabat orqali ekologik madaniyat shakillana borishi tufayli tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga ta'siri orqali undagi muvozanatni buzadi va tabiat hodisalarining davriy muvozanatini izdan chiqaradi.

Tabiatdan va uning boyliklaridan foydalanish ko'lami hozirda juda kengaydi hamda yangicha sifat kasb etdi. Asrlar mobaynida qamrab yotgan bepayon cho'llarga suv chiqarilib, yangi vohalar bunyod qilindi, kanallar, suvomborlari qurildi. Yer bag'rida xilma-xil foydali qazilmalar topilib, ular qazib chiqarilmoqda, yirik sanoat markazlari paydo

bo'ldi. Bular oqibatida kishilarning tabiiy muhitga ta'siri juda kuchayib ketdi. Ayrim joylarda bu xavfli tus oldi. Qishloq xo'jaligida katta maydonlarning o'zlashtirilishi, ayniqsa, obikor yerlarning kengayishi, ko'plab mineral o'g'it, turli xil defoliant, gerbitsid, pestitsidlarning ishlatilishi, yirik korxonalarining qurilishi landshaft komponentlari o'rtasidagi muvozanatning muayyan darajada buzilishiga olib keldi. Oqibatda, tabiiy jarayonlarda ham o'zgarishlar ro'y berdi.

Quyi Amudaryoning murakkab tabiiy geografik hududi bo'lib, ma'muriy jihatdan O'zbekiston va Qozog'iston hududlarida joylashgan Orol dengizi hozirgi kunda global muammolardan biri hisoblanadi.

Kattaligi bo'yicha dunyo ko'llari orasida to'rtinchi o'rinni egallagan O'rta Osiyoning ikki yirik daryosi — Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan to'yingan. Mazkur suv havzasi O'rta Osiyo hududida iqlim holatini nazorat qilish, ob-havodagi keskin o'zgarishlarni yumshatish vazifasini ham bajargan. Hududga kirib kelgan shamol massalari Orol dengizi akvatoriysi ta'sirida qishda iliqlashgan, yozda esa salqinlashgan. O'tgan asr o'rtalarida Orol dengizining suv hajmi 1080 km³ni tashkil etgan bo'lsa, hozir bu suv havzasi uchta kichik qismga — G'arbiy dengiz (43,6 km³), Shimoliy dengiz (25,1 km³), Katta dengiz (0,7 km³) ajralib qolgan.



Ushu muammoning kelib chiqishiga bir qancha sabablarni misol qilishimiz mumkin.

- suvning noto'g'ri sarflanishi va demografik omillar
- 1913 yilda Orol dengizidan suvi bilan sug'oriladigan yer maydoni 3,2 mln gektar bo'lgan bo'lsa, 1985 yilga kelib, bu ko'rsatkich 6,9 mln gektarga yetdi. Shu bilan suvdan foydalanish miqdori oshgan
- Boshqa turli ehtiyojlar uchun Orol dengizidan sarflanadigan suv 1960 yillarda 63 km³, 1980 yilda esa 95,0 km³ kubni tashkil etgan.

- O'tgan asr davomida bir qancha kanallarning bunyod etilishi natijasida Amudaryo va Sirdaryo suvlari boshqa tomonga yo'naltirilgan, natijada Orolgacha suv yetib bormagan

- 20 asr davomida Orolbo'yi hududlari Markaziy Osiyo va qisman Afg'oniston aholisining 14 mln.dan 65 mln.gacha keskin ortishi ham suvga bo'lgan talabning ortib borishiga sabab bo'lgan.

- qishloq xo'jaligi maqsadlarida yerning sho'rini yuvishga ham katta miqdorda suv sarflangan.

Orol dengizining qurishi aholi uchun salbiy ta'sir qilmay qolmaydi. Orol dengizining qurib borishi natijasida bir qator salbiy holatlar yuzaga keldi. Orol hududida paydo bo'lgan zaharli tuz uyumlarining zarralari Pomir tog'lari, Antarktida sohillari, Grenlandiya muzliklari, Norvegiya o'rmonlarigacha yetib bormoqda. Yovvoyi o'simliklar va hayvonot dunyosi qirilib bormoqda. Orolbo'yi hududida lokal iqlim keskin o'zgarishlarga uchradi. Ichimlik suvining tanqisligi, xavfli kasalliklarning tarqalishi, yashash sharoitlarining og'irlashuvi natijasida Orolbo'yi hududidan aholi migratsiyasi ko'paygan

Orol dengizi tobora qurishi davom etmoqda. Orol bo'yida ekologik vaziyat juda yomonlashdi. Orol o'z tarixida 4 marta qurigan deyiladi. Insoniyatga eng og'ir kulfat keltirgani shu oxirgi qurishi bo'lsa kerak. Orol qurigandan keyin Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik ofatning salbiy oqibatlari global miqyosdagi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Orol dengizining qurishi va unga bog'liq bo'lgan inqiroz asosan quyidagi yo'nalishlarda o'z aksini topdi:

1. Atrof- muhitning deqratsiyasi
2. Salomatlik muammolari
3. Iqtisodiy tannazul
4. Biologik xilma-xillikning yo'qolishi

Orolbo'yi mintaqasidagi bu ekologik ofat global miqyosda ham jiddiy tashvishga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan xalqaro hamkorlikda bir qator tiklash loyihalari amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda, orol inqirozining salbiy oqibatlarini shular bilan yakunlab qo'yish noto'g'ri bo'ladi. Global miqyosdagi muammo kasb etgan Orol inqirozi aholining demografik, ijtimoiy muammolariga ham sabab bo'lmoqda. 2017- yildan keyin Orol muammosiga O'zbekiston Hukumati jiddiy nazar tashlay boshladi va sobiq dengizning qurigan maydoniga cho'lga chidamli o'simliklarni ekish kompaniyasini boshlab yubordi. Tumanda aholining ijtimoiy – iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Dengiz esa odamlar qalbida hamisha yashab qolmoqda.

Xulosa va tavsiyalar: Tabiat –odamning paydo bo'lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham borliq. Tabiat deganimizda bizning hayolimizga dunyo, odam, hayvonlar, koinot, mikroorganizm va makroorganizmlar kiradi. Tabiat odamga, jamiyatga bog'liq bo'lmagan qonuniyatga bo'ysunadi. Odam tabiatning bir qismi. Odam tabiat qonunlarini o'zgartira olmaydi, faqat qonunlardan foydalanib, tabiat elementlarini, qismlarini o'zlashtirishi mumkin. Lekin baribir insoniyat tabiat qonunlariga bo'ysunadi.

Orol dengizi muammolari O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo uchun jiddiy ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammo hisoblanadi. Dengizning qurishi natijasida yuzaga

kelgan salbiy ta'sirlarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun quyidagi yechimlarni taklif etish mumkin:

1. Suv resurslarini oqilona boshqarish

✓ **Tomchilatib sug'orish texnologiyalarini kengaytirish:** Qishloq xo'jaligida suvdan samarali foydalanishni ta'minlash uchun tomchilatib sug'orish va boshqa zamonaviy sug'orish usullarini joriy qilish kerak.

✓ **Suvni tejashga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi madaniyatini rivojlantirish:** Paxta va guruch kabi suvni ko'p talab qiladigan ekinlarni bosqichma-bosqich o'zgartirish yoki kamaytirish kerak.

✓ **Ko'llarni va daryolarni qayta tiklash loyihalari:** Amudaryo va Sirdaryo suvlari to'g'ri boshqarilishi kerak, bu dengizning qolgan qismini saqlab qolishga yordam beradi.

2. Qayta tiklash va o'rmonlashtirish

✓ **Saxarofit o'simliklarni ekish:** Orolbo'yi hududlarida saksovul va boshqa cho'lga mos o'simliklarni ekish chang bo'ronlarini kamaytiradi va yerning eroziyasini oldini oladi.

✓ **Baliqchilikni rivojlantirish:** Qayta tiklanayotgan hududlarda kichik suv havzalari yaratish va baliqchilikni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

3. Ekoturizmni rivojlantirish

✓ Orol dengizi hududidagi tabiiy va tarixiy joylarni saqlash va targ'ib qilish orqali ekoturizmni rivojlantirish ekologik va iqtisodiy foyda keltiradi.

4. Mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish

✓ **Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida suv resurslarini boshqarishda hamkorlik:** Suvni adolatli taqsimlash va umumiy ekologik muammolarni hal qilish uchun xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kerak.

✓ **Xalqaro yordam va grantlar jalb qilish:** Global ekologik tashkilotlardan yordam olish orqali tiklash ishlari uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish mumkin.

5. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish

✓ **Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish:** Quyosh va shamol energiyasidan foydalanib, mintaqadagi energiya muammolarini kamaytirish mumkin.

✓ **Suvni tuzsizlantirish texnologiyalari:** Amudaryo suvlari yoki boshqa manbalardan foydalanib ichimlik suvi ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish lozim.

6. Mahalliy aholi hayot sifatini yaxshilash

✓ **Sog'liqni saqlash xizmatlarini kuchaytirish:** Chang bo'ronlari va ifloslanishdan kelib chiqadigan kasalliklarni oldini olish uchun tibbiy yordamni yaxshilash.

✓ **Ta'lim va kasb-hunar dasturlari:** Mahalliy aholining turmush darajasini ko'tarish va muqobil ish o'rinlari yaratish uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlarini kengaytirish zarur.

7. Monitoring va ilmiy tadqiqotlar

✓ **Ekologik monitoring tizimini yaratish:** Hududdagi ekologik holatni kuzatib borish va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash zarur.

Orol muammosining yechimi uzoq muddatli va ko'p tomonlama yondashuvni talab

qiladi. Ushbu takliflar orqali tabiiy muhitni tiklash va mahalliy aholi hayotini yaxshilashga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Orolbo‘yi hududlarini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (2018-yil 10-oktabr).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Orol dengizi qurishi bilan bog‘liq hududlarni o‘rmonlashtirish va cho‘lni ekologik tiklash dasturi”
3. Karimov, I.A. **“Orol fojiasi: muammolar va yechimlar yo‘li”** (Toshkent, O‘zbekiston, 2015).
4. Jalolov, M. **“Markaziy Osiyoda suv resurslari boshqaruvi va Orol dengizi ekologiyasi”** (2020-yil). Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi suv muammolarini yoritadi.
5. Micklin, P. **“The Aral Sea Disaster”**, Springer International Publishing (2014).
6. Glantz, M. H. **“Creeping Environmental Problems and Sustainable Development in the Aral Sea Basin”**, Cambridge University Press (1999).

Internet manbalar:

1. <https://znaniya.com/task/30700624>
2. <https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=uz&u=https://uznature.uz/uz/site/news%3Fid%3D768&prev=search&pto=aue>
3. <https://parliament.gov.uz/articles/2075>
4. <https://ekolog.uz/889/>